



IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI MARKETING IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Sabirjanova Iroda Ravshanovna

Ranch texnologiya Universiteti “Iqtisodiyot”

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

sabirjanovairoda9@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari va internet imkoniyatlarining rivojlanishi bilan bir qatorda raqamli marketingning ahamiyati ham oshib bormoqda. Marketingning ushbu turi xalqaro miqyosda iqtisodiyotning turli sohalarida samarali natijalarga erishishga imkon beradi. Ushbu maqolada raqamli marketingning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish usullari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli marketing, an'anaviy marketing, SEO, SMM, brending, ijtimoiy tarmoq, kontent marketing, e-mail marketing

Аннотация: Сегодня, наряду с развитием информационных технологий и возможностей Интернета, в современном мире возрастает и значение цифрового маркетинга. Данный вид маркетинга позволяет добиться эффективных результатов в различных отраслях экономики на международном уровне. В статье показана роль цифрового маркетинга в социально-экономическом развитии и методы эффективного использования его возможностей.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, традиционный маркетинг, SEO, SMM, брендинг, социальные сети, контент-маркетинг, e-mail-маркетинг.

Abstract: Today, along with the development of information technology and Internet capabilities, the importance of digital marketing is also increasing in the modern



world. This type of marketing makes it possible to achieve effective results in various sectors of the economy at the international level. This article shows the role of digital marketing in social and economic development and the methods of effective use of its opportunities.

Key words: digital marketing, traditional marketing, SEO, SMM, branding, social network, content marketing, e-mail marketing.

Raqamli marketing, zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yanada samarali va tezkor amalga oshirish imkonini beradi. Raqamli marketing zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyatning farovonligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Raqamli marketing an'anaviy marketing usullariga qaraganda samaraliroq va tejamkor bo'lib, biznesning rivojlanishi va mijozlarga xizmat hamda mahsulotlar yetkazilishida bir qator afzalliklarga ega. Raqamli marketingning ushbu xususiyatlarini hisobga olgan holda uni rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan bir qator chora tadbirlar ko'rilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston -2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli farmoni¹ hamda 2023-yil 24-mayda qabul qilgan "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"² gi PQ-162-sonli qarorlari ushbu sohani mamlakatimizda yanada rivojlantirish va takomillashtirish yo'lidagi say-harakatlardan hisoblanadi.

Raqamli marketing bu- internet va raqamli texnologiyalar orqali mahsulot va xizmatlarni iste'molchilarga targ'ib qilish usuli hisoblanib, u onlayn platformalar, ijtimoiy

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli farmoni. 05.10. 2020-y


² O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-162-sonli qarori. 24.05. 2023-y



tarmoqlar, qidiruv tizimlari, elektron pochta, va boshqa raqamli vositalar yordamida mijozlarga yetkazilishini maqsad qiladi.³

O'zbekistonda raqamli marketingning o'sish suratlari yildan yilga ortib bormoqda. Bunga internet foydalanuvchilarining soni ortishi, internet tezligi sifatining yaxshilanishi, hamda turli onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanib borayotganligi sabab bo'lmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil boshida jami internet foydalanuvchilari soni taxminan 24,5 millionni tashkil etib, bu jami aholining 85 foizini tashkil qiladi.⁴ Internetdan foydalanuvchilarning deyarli 27 % ya'ni 6,5 million aholi instagram, facebook, twitter, tik-tok, linkedln, tumblr kabi keng tarqalgan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari hisoblanadi. Ushbu tarmoqlar orasida eng katta ulushni instagram – 8,7 million kishi jami aholining 23,5 % i, tik-tok-3,12 million kishi jami aholining 8,4 % i, hamda facebook - 2,15 million kishi jami aholining 5,8% ulushini tashkil qilgan holda yetakchi o'rinlarda bormoqda.

1-rasm. O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchi aholi ko'rsatkichlari.⁵



Raqamli marketing, bugungi kunda barcha sohalarda va biznes tizimlarida muhim ahamiyat kasb etadigan marketingning eng zamonaviy va samarali shakliga

³ P. Kotler, K.L.Keller. Marketing management 15-edition. Pearson education.2016-y.

⁴ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

⁵ DATAREPORTAL.COM REPORTS@KEPIOS.COM @ESKIMON SIMON KEMP 2024



aylangan. Raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi, internet va mobil ilovalar orqali odamlarning hayotiga chuqur kirib borishi, onlayn aloqalar o'rnatish imkoniyatlari, marketing sohasining yangi imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minladi. Raqamli marketingning asosiy maqsadi – brend va mahsulotlarni onlayn muhitda targ'ib qilish, mijozlarga erishish va ularni doimiy ravishda o'ziga jalb etishdir. Bu jarayonni amalga oshirishda SEO (Search Engine Optimization), kontent marketingi, ijtimoiy tarmoqlarda reklama, e-mail marketing va mobil marketing kabi raqamli vositalar muhim o'rin tutadi. O'tgan yillar davomida raqamli marketingning rivojlanishi global miqyosda biznes va tijorat faoliyatini qayta shakllantirishga olib keldi. Bugungi kunda kompaniyalar o'z mahsulotlarini yoki xizmatlarini jismoniy do'konlar va an'anaviy reklama usullari yordamida emas, balki internet va mobil platformalarda reklama qilish orqali mijozlarga yetkazadilar. Bu o'zgarish nafaqat marketing sohasida, balki ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish va xatto ta'lim sohalarida ham sezilarli ta'sirini ko'rsatyapti.

Raqamli marketing an'anaviy marketingga qaraganda bir qator afzalliklarga ega⁶:

- **Keng auditoriyani jalb qilish.** Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali global bozorlarga chiqish mumkin, bu esa kichik biznes uchun katta imkoniyatlarni beradi.

-**Tahlil qilish va o'lchash imkoniyati.** Raqamli marketingning samaradorligini aniq o'lchash va tahlil qilish orqali aynan qanday strategiyalar samaraliroq natijalar berishi mumkinligini aniqlash mumkin.

-**Ma'lumotlarni to'plash va moslashtirish.** Ushbu marketing turi orqali mijozlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va shu orqali mijozlar qiziqishini orttiradigan maxsus reklama va kontentlarni yaratish mumkin.

-**Tezkorlik va samaradorlik.** Raqamli marketing an'anaviy marketingdan ko'ra tezkor va samarali natijalar berishi mumkin.

- **Tejamkorlik.** An'anaviy marketingga qaraganda xarajatlar kamroq sarflanadi, bu esa biznes egasi uchun budjetni kamroq sarflash imkonini beradi.

⁶ <https://www.geeksforgeeks.org/difference-between-traditional-marketing-and-digital-marketing/>



-Mijozlar bilan doimiy aloqa. Ushbu marketing turi orqali mijozlarning mahsulot haqidagi fikrlari va takliflarini tez bilib olish mumkin, bu esa tadbirkorga brendni rivojlantirish uchun katta yordam beradi.

O'zbekiston iqtisodiyoti hozirgi kunda yanada global va raqamli iqtisodiyotga o'tmoqda. Raqamli marketing esa bu o'zgarishlarning markaziy qismlaridan biridir. Aynan davlatimiz uchun mos bo'lgan raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida raqamli marketing imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'nalishlari.⁷

Turizm sohasi	• Ijtimoiy tarmoqlarda targ'ibot • SEO va kontekstli reklama • Virtual turlar
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish	• Elektron tijorat platformalaridan foydalanish • Brend yaratish • SMM va target reklamalar
Mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish	• Mahsulotlar va xizmatlar uchun veb saytlar yaratish • Kontent marketingni rivojlantirish
Ta'lim va kadrlar tayyorlash	• Online kurslar va vebinarlar tashkil qilish • Mahalliy marketing va IT kurslarini tashkil etish
Davlat xizmatlari sohasida	• Elektron davlat xizmatlarini targ'ib qilish • Target reklamani rivojlantirish • Tahliliy marketingni yo'lga qo'yish

⁷Manbalardan muallif ishlanmasi



O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida raqamli marketing imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mamlakatning iqtisodiy o'sishini tezlashtirish va xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytirishda muhim omillardan sanaladi. Shuningdek, to'g'ri tanlangan marketing strategiyalari korxonalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratib qolmasdan ularning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079 sonli farmoni.05.10.2020-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish to'g'risida”gi PQ-162-sonli qarori.24.05.2023-yil
3. D.X.Suyunov, A.T.Kenjabayev, A.O.Ro'ziyev. Elektron tijorat. Darslik . T.-2023
4. P. Kotler, K.L.Keller. Marketing management 15-edit. Pearson education.2016 y.
5. Dadabayeva.R.The effects of digital marketing on a company's overall commercial growth in Uzbekistan.Journal of Management and future technologies. April 2024
6. <https://www.geeksforgeeks.org/difference-between-traditional-marketing-and-digital-marketing>
7. Datareportal.Com Reports@Kepios.Com @Eskimon Simon Kemp 2024
8. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari